



NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 17-avgust

121-5-70-Q/26

Konimex tuman hokimiligi

Konimex tumani hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 7-avgustdagi "Respublikada davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 437-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6, 21¹ -moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Konimex tumani hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasiga quyidagicha o'zgartirishlar kiritilsin.
2. Konimex tumani hokimligi boshqaruv apparati tashkiliy tuzilmasidagi "Tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi" lavozimi "Tuman hokimining ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi" deb yuritilsin.
3. Tuman hokimligi boshqaruv apparati namunaviy tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Tuman hokimining 2026-yil 21-yanvardagi 13-5-70-Q/26 -sonli qarorining 1-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
5. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (A.Pirniyazov) mazkur qarorga muvofiq tuman hokimligi xodimlari shtat jadvaliga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilsin.
6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari O.Umarov zimmasiga yuklansin


Konimex tumani hokimi



Roʻziyev R.N

Konimex tumani hokimligi boshqaruv apparatining

TUZILMASI



Tuman hokimligi apparati shtat birliklari soniga qo'shilmaydi.

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – 21 birlik

1. Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni - 21 nafar;
2. * - Tuman hokimligi apparati shtat birliklari soniga qo'shilmaydi;
3. Mahallalarga birlashtirilgan hokim yordamchilari soni - 15 nafar;